

SHARQ XALQLARI SAN'ATI TARIXI, MUSIQA MEROSI VA MAQOM IJROCHILIGI HAQIDA

Tulkinjon Djurayevich Muxamedov

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasи
o'qituvchisi
t.d.muxamedov@buxdu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sharq xalqlari badiiy san'atining shakllanishi va rivojlanishi tarixi hamda musiqa merosi hamda an'analari haqida fikr yuritilgan. Maqom va uning o'ziga xos xususiyatlari, Sharq mutafakkirlari, musiqashunos olimlari va atoqli sozandalarining maqom ijrochiligiga oid qarashlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sharq xalqlari, ijrochilik maktabi, Misr san'ati, Old Osiyo, Kichik Osiyo, Hindiston, Qobusnomma, o'n ikki maqom, Panjgoh.

ABOUT THE HISTORY OF ART OF THE EASTERN PEOPLE, MUSIC HERITAGE AND PERFORMANCE

Tulkinjon Djurayevich Mukhamedov

Bukhara State University, Faculty of Art History Lecturer at the Department of Music Education

t.d.muxamedov@buxdu.uz

ABSTRACT

This article discusses the history of the formation and development of the arts of the peoples of the East, as well as the musical heritage and traditions. The makam and its peculiarities, the views of Eastern thinkers, musicologists and famous musicians on the performance of the status are widely covered.

Keywords: Oriental Peoples, School of Performing Arts, Egyptian Art, Old Asia, Asia Minor, India, Kobusnomma, Twelve makam's, Panjgoh.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning o'z madaniyati va san'ati, shuningdek, musiqiy madaniyati mavjud bulib, ularning ma'naviy boyligi xisoblangan. Ayniqsa, Sharq xalqlarining musiqiy madaniyati xar bir xalq milliy musiqasining asosini tashkil etgan, nazariy va amaliy ijrochilik maktabiga ega bo'lgan. Sharq xalqlarining musiqiy boyligi bulgan maqom, mug'om, navba, raga, kyui singari

musiqiy ijrochilikning aniq turkumlari turli davrlarda turli ko'rinish va yo'naliishlar bilan ijro etilib kelingan va rivojlangan.

Maqom turkumlari, "Shashmaqom" ham o'zbek va tojik xalqlarining ulkan musiqiy boyligi hisoblanib, xalq bastakorlari ijodi natijasida shakllangan va boyib borgan. Hozirga kelib, bu turkum ijrolarining aniq shakliga, xarakteriga va an'anaviy ijro uslublariga to'liq egamiz deb ayta olamiz. Albatta, buning boisi, o'tgan maqomdon va bastakor ustozlarning bu borada qilgan ulkan ijodiy mehnatlarining natijasidir. Maqom ijrolari musiqiy madaniyatimizning asosini tashkil etganligi sababli bu mavzuga ko'proq to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sharq xalqlari mumtoz musiqa san'ati va madaniyati tarixi katta davrni o'z ichiga oladi. Qadimgi sharqda mavjud bo'lgan qadimgi Misr podsholigi, old Osiyodagi Shumer, Akkad, Babil (Vaviloniya), Ossuriya, Urartu, Xett davlatlari, Eron imperiyasi, O'rta Osiyo, Xindiston, Xitoy, va Janubiy Sharqiy Osiyodagi davlat va podsholiklar jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Sharq xalqlari yashaydigan hududda quyosh nurining mo'lligi, suvi, toshqin daryolari, serunum yerlari odamlarni erta dehqonchilik va chovchilik bilan shug'ullanishga o'rgatdi. Qadimgi Sharqda san'at uzoq vaqt xunarmandchilikni bir qismi sifatida qoldi. Eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardayoq bu yerlarda sinfiy jamiyat - quldorlik jamiyati shakllana boshladi va bu jamiyat yangi eraning boshlarigacha davom etdi. Quldorlik jamiyati san'atining vazifasi esa ko'pchilikni boshqaruvchi sinfga, ekspluatatorlar g'oyasini omma ichida targ'ib qilish bo'lib qoldi. Sharq xalqlarining realizmi ham o'ziga xos xususiyatga ega. U ko'pincha voqelik, kishilar va tushunchalarni fantastik obrazlarda, ramziy va shartli belgilarda tantanali, ulug'vor qilib ifodalaydi. Biz Sharq san'atini o'rganganda alohida yirik san'atkorlar ijodi to'g'risida to'xtalmaymiz. Chunki san'at namunalari omma ichidan chiqqan noma'lum iste'dod egalari tomonidan yaratilgan.

Qadimgi sharq san'atida qadimgi Misr san'ati alohida o'rin tutadi. Qadimgi Misr san'ati deyarli 4000 yilni o'z ichiga olgan davrda tasviriy va amaliy san'at, me'morchilikning nodir durdonalari dunyoga keldiki bugungi kunda ham o'zining mahobati, badiyiliqi bilan barchani hayratga soladi. Bu yerda birinchi marta inson va uning mehnati san'atkor asarida o'z ifodasini topdi. Qadimgi Misr san'atining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u din bilan aloqada va unga tobe bo'lgan. Misr ehromlari qatoridan joy olgan uch dinastiya firavni Joser maqbarasi, IV dinastiya firavnulari Xufu, Xafra va Minkiura piramidalari Fifadagi Karnak va Luksor ibodatxonalar gigant me'morchilik san'atining nodir namunalaridir. Qadimgi Misr tasviriy san'ati me'morchilik bilan bog'liq holda rivoj topdi. Misr san'ati umumjahon san'ati taraqqiyotida o'ziga xos qaytarilmas o'rinni egallaydi.

Old Osiyo san'ati deganda o'rta yer dengizi, havzasining sharqiy qismi sohillari, Kichik Osiyoning tog'li tumanlari chegaralarida eramizdan avvalgi Shumer, Akkad, Ossuriya, Urartu, Bobil kabi qator davlatlar mavjud bo'lib, ular jahon san'ati tarixiga o'z hissalarini qo'shganlar. Bu yerda haykaltaroshlikning go'zal asarlari yaratildi, devoriy suratlar, nozik amaliy-dekorativ buyumlar ishlandi. Akkad podsholigi davrida Old Osiyo yagona davlatga birlashtirildi. Shu davrda tasviriy san'at realizmi ortdi. Ayni shu davrda Shumer dostoni «Gilgamish» yaratildi. «Sargon haykali», «Semit portreti», «Narasmin stellasi» o'sha davrning mashhur asarlaridandir. Old Osiyo san'atida nodir me'morchilik va tasviriy san'at yodgorliklari yuzaga keldi.

Qadimgi Sharqda o'ziga xos hisoblangan Hindiston san'ati ham qator taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Bu taraqqiyot jarayonida hind san'atiga goh Shumer, goh Grek san'atining ta'siri bo'lgan. Lekin shunga qaramay, uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, u asosan xalq san'ati, ayniqsa hunarmandchilik ta'sirida bo'lgan. Hindiston san'ati qadimdan har-xil dinlar ta'sirida rivoj topgan. Qadimgi Hindiston san'atining gullagan davri Mauriya sulolasi (e.av. 272-232 y)da sodir bo'ldi. Ashoka hukmronligi davrida buddizm keng tarqaldi. Ibodatxonalar qurilishiga, tasviriy san'at asarlariga keng e'tibor berildi. Adjantadagi g'or ichidagi ibodatxona va shunga o'xshash qator san'at asarlari qadimgi hind madaniyatining nodir namunalaridir.

MUHOKAMA

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi qadim zamonalarga bog'lanib ketadi. Buyuk Sharq allomalari Muhammad Al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Ahmad al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar «Qobusnama»da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan.

NATIJA

Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutor, surnay, qonun, nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mug'om, Dastgoh, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy

tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (davozdax) maqom mavjud bo'lgan. Bular «Ushshoq», «Navo», «Buzalik», «Rost», «Husayniy», «Hijoz», «Rohaviy», «Zangula», «Iroq», «Isfahon», «Zirofqand», «Buzurg»dir.

Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdah maqom» (o'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog'iy, Xoja Sayfidin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lgan : «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Roho», «Maqomi Hijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Husayniy». Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig» singari kuylarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan holi emas.

Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «Shashmaqom» (Olti maqom): «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning «Chor maqom»i (To'rt maqom), «Dugoh Husayniy»ning yettita yo'li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo'li, «Shahnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo'li hamda «Bayot» yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Xorazm maqomlarida ham yuqorida ta'kidlangan olti maqom ijrosini alohida uslubiy va o'ziga xos yo'nalishini kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi maqom sifatida chertim yo'lidagi «Panjgoh» maqomi kiritilgan. Shuning uchun avloddan-avlodga o'tib kelgan bebaho musiqiy boyligi sanalmish Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Toshkent maqomlari, betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug' ne'mat sifatida ardoqlanadi.

REFERENCES

- SH. M. Mirziyoev, Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017 y.

2. I. A. Akbarov, Musiqa lug'ati. Toshkent G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti - 1987 y.
3. F. M. Karamatov, "O'zbek xalq musiqa merosi". Toshkent G'. G'ulom nomidagi nashriyot – 1978 y.
4. Madrimov, B. X. (2018). O'zbek musiqa tarixi. *O 'quv qo 'llanma*, 120.
5. Madrimov, B. X. (2020). Representation of teachers of music culture and pedagogical creativity and pedagogical technology. *Bulletin of science and education*, (21-2), 99.
6. Мадримов, Б. Х. (2020). Бухарский шашмаком-феномен в культуре Центральной Азии. *Наука, техника и образование*, (10 (74)).
7. Ярашев, Ж. Т. (2021). МУЗЫКАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ. *Scientific progress*, 1(5).
8. Yarashev, J. T. (2013). "Bukhorcha" and "Mavrigi" song classes—as a national and noetic spiritual values of the Uzbek nation. *ТРАДИЦИОННАЯ И СОВРЕМЕННАЯ КУЛЬТУРА: ИСТОРИЯ, АКТУАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ПЕРСПЕКТИВЫ*, 114.
9. Yarashev, J. T. (2019). Research on Bukhara music heritage through axiologic features. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
10. Мухамедов, Т. Д. (2020). Способы направления студентов на информационные технологии. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)).
11. Мухамедов, Т. Д. (2021). СПОСОБЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ МУЗЫКИ. *Проблемы науки*, 43.
12. К, Ш. (2019). Ахлокий поклик рухий камолот асоси. "Жаҳон маданий цивилизацияси контекстида хожагон, нақишбандия тасаввуфий таълимотлари илмий-маънавий меросининг умумбашарий аҳамияти", 1 бет.
13. К, Ш. (2019). Мусиқа таълими жараёнида мустақил ишларнинг самарадорлигини ошириш. "Бухоро шашмақоми: тарихий-назарий ва амалий масалалари", 2 бет.
14. Камолов, Ш. (2018). Касб-хунар колледжларида муаммоли таълимдан фойдаланиш. *Международный сборник научных статей по теме: "Перспективы развития психологии на современном этапе"*, 2 бет.
15. Хасанов, Х. Р. (2020). Культура и искусство в эпоху Амира Темура и темуридов. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)).
16. Ахтамов, И. И. Ў. (2021). МАҚОМ АНЬАНАВИЙ КАСБИЙ МУСИҚА НАМУНАЛАРИНИ ЎРГАНИШДА ОВОЗ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific progress*, 1(5).
17. Кушаев, И. А., & Ахтамов, И. И. (2020). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТРАДИЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ (НА ПРИМЕРЕ ИСКУССТВА ДАСТАНА). *Academy*, (11 (62)).